

**Taqrizchi: To'laboyeva Ruxsora Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.**

**Qo'chqorova Dilnoza Sherboboyevna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar

fakulteti 2-bosqich magistranti

## **OILAVIY MUHITDA GENDER TENGLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gender tenglik, oilaviy munosabatlar, qadriyatlar, er va xotin hamda farzand munosabatlari, ushbu munosabatlarda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar psixologik izlanishlar va ilmiy xulosalar asosida ko'rib chiqildi va bir qancha holatlar o'rganildi. Jahon gender tengligi munosabatlari, standartlarining bugungi kunda yurtimizda qay darajada amalga oshirilayotganligini dunyo hamjamiyati hamda O'zbekistonimiz misolida ko'rib chiqildi va kerakli xulosalar berib borildi.

**Kalit so'zlar:** oila, munosabat, gender tenglik, ayol, erkak, er-xotin, farzandlar, nizo, ish, psixologiya, quvonch, stress, sevgi, birdamlik, huquqlar, ijtimoiy tenglik tushunchasi va boshqalar.

**Abstract:** In this article, gender equality, family relations, values, husband and wife and child relations, mistakes and shortcomings that can be made in these relations were considered on the basis of psychological research and scientific conclusions, and several cases were studied. To what extent world gender equality relations and standards are being implemented in our country today, the world community and Uzbekistan were considered and the necessary conclusions were given.

**Key words:** family, relationship, gender equality, woman, man, couple, children, conflict, work, psychology, joy, stress, love, solidarity, rights, concept of social equality etc.

### **Абстрактный:**

В данной статье на основе психологических исследований и научных выводов были рассмотрены гендерное равенство, семейные отношения, ценности, Mazkur отношения мужа и жены и детей, ошибки и недостатки, которые могут быть допущены в этих отношениях, а также изучено несколько случаев. В какой степени сегодня в нашей стране реализуются мировые отношения и стандарты гендерного равенства, было рассмотрено мировое сообщество и Узбекистан и сделаны необходимые выводы.

**Ключевые слова:** семья, отношения, гендерное равенство, женщина, мужчина, пара, дети, конфликт, работа, психология, радость, стресс, любовь, солидарность, права, концепция социального равенства и т. д.

**Kirish:** Ushbu maqolamizda bugungi zamonaliviy oilalarda gender tenglikni namoyon bo'lishida ta'lif jarayonlarining o'rni ijtimoiy jarayonlarning o'ziga xos ta'siri asoslangan. "Biz bugun mustaqil davlat va jamiyat qurish, xalqimiz uchun hech kimdan kam bo'Imagan faravon hayot barpo etish yo'lida tarixan qisqa davrda haqiqatdan ham asrlarga teng keladigan yo'lni masofani bosib o'tdik. Bugun O'zbekiston deb atalmish qo'rg'onimiz tarixan qisqa davrda poydevori mustahkam davr talabiga javob beradigan zamonaliviy davlatga aylanib borayotgani eng asosiysi avvalo, odamlarimizning dunyo qarashi, fikr-zikri, siyosiy va huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotgani bu borada hal qiluvchi omillardan bira ekanini hammamiz bugungi kunda yaxshi angloqdamiz. Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev takidlaganlaridek „Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun. Oilani saqlab qolmasak, biz o'zligimizni yo'qotamiz". Bilamizki jamiyat asosini oila tashkil qiladi. Oila jamiyat hayotining boshlang'ich bo'g'ini sifatida ijtimoiy munosabatlarda muhim o'rinn tutadi. Oila azal-azaldan sharq xalqlari hayotida eng asosiy qadriyat sifatida jamiyatga manan yetuk jismonan barkamol insonni yetkazib beruvchi manba vazifasini o'tab kelgan shu bilan bir qatorda islam dinida oilaviy munosabatlari, nikohning manfaatlari, er va xotinning burch va vazifalari, oilada farzand tarbiyasi kabi masalalarga niroyatda katta ahamiyat qaratilgan. Muqaddas dinimizda oila qurishga ayol va erkak birdek targ'ib qilingan jumladan, Alloh taolo Qur'oni Karimda „Sizlar eslatma olishlaringiz uchun biz har bir narsani juft qilib yaratdik." deb marhamat qiladi (Zoriyot surasi 49-oyat). Asrlar davomida o'z etirofini topgan va diniy axloqiy

qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi".<sup>1</sup>

**Adabiyotlar tahlili:** "Oila qancha sog'lom bo'lsa jamiyat ham shunga munosib bo'ladi,lekin tagiga zil ketgan oila oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim xonadonlar parokanda bo'ladi. Bu esa jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi.Bu borada islam mutafakkirlari tomonidan ko'p sonli durdona asarlar yozilgan bo'lib, mana shunday olimlardan biri Abu Ali ibn Sinodir.Ibn Sino o'zining „Tadbil ul- manzil"asarida oila uning inson va jamiyat hayotidagi beباو ahamiyati,oila boshlig'ining vazifalari, uy-joy idora etish shartlari farzand tarbiyasi amal qilinishi lozim bo'lgan jihatlari, oila rahbarining o'ziga juft tanlashda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan masalalar bayon qilingan.Ibn Sinoning „Tadbil ul- manzil"risolasi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda jamiyat rivojiga hissa qo'shuvchi fozil insonlarning yetishib chiqishida katta ahamiyatga ega bo'lib oilani boshqaruvchilar va uning a'zolar uchun o'ziga xos dasturil amal vazifasini bajaradi. Faylasuf olimlarimiz masalaning mohiyatini ochib berishda shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati haqidagi umumaksiologik qonuniyatga suyangan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat degan nazariy konsepsiani o'rtaga tashlaganlar. Xuddi shu konsepsiyada o'rtaga tashlaganlar. Xuddi shu kansepsiyadan esa oilada farzand tarbiyasi ijtimoiy harakterga ega boshqa bir xulosa kelib chiqadi. XX asr boshlaridagi marifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Abdurauf Fitratning "Oila" asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi."deb yozadi.<sup>2</sup>

**Natijalar:** Vatanimiz O'zbekistonda bugungi kun zamonaviy ta'limining gender tengligiga erishishda o'ziga xos roli mavjud bo'lib ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish bilan bog'liq bir qator dasturlar, qonun hujjatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilinib, gender tengligi bo'yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasи ham mavjudligi ta'kidlangan. Bu esa bugungi kundagi yurtimizda amalga oshirilayotgan va gender tengligi- ayol va erkak huquqlari teng ekanligining yorqin isbotidir. "Gender tenglik to'g'risidagi qonun ijtimoiy-siyosiy sohalarni ayollarning rolini oshirish uchun zamin yaratadi. Ayolga imkoniyat va vakolat berish, uni faollashtirish, jamiyatni yanada rahm-shavqatli, insonparvar va ma'rifatli qilishdan iborat. Gender tenglim bo'yicha ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'milash va kamsitishning har qanday shakliga baham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va Gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rinli deb bilaman: "Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart." Shu kuni prezidentni taklifiga binoan mamlak tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi-Tanzilla Narbayeva saylandi. Gender tenglik bo'yicha imstitutsional chorallarga kelsak, ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini taminlash va kamsitishning har qanday shakliga barxam berish bo'yicha milliy qonuchilikda xalqaro standartlarni uygunlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin qizlar va Gender tenglik masalalar qo'mitasi tashkil qilingan. O'zbekistonda Gender tenglikni taminlash borasida bugungi kunda qonunchilik hujjatlari asosida tizimli ravishda tashkil etilganligi va bir so'z bilan aytkanda inson qadri uchun xizmat qilishi isloxtarimizning yorqin dalilidir".<sup>3</sup>

**Muhokama:** Kustova O.L. savolno-masi asosida erkaklar va ayollarni tavsiflovchi genderga xos bo'lган - talablar, andozalar, me'yorlar, xususiyatlar, gender stereotiplari shaxsiy semantik farqlari (ShSF) o'rganildi.

<sup>1</sup> Oila-jamiyat farovonligining ma'naviy, huquqiy mezoni Xamidova Rislig'oy Faraxadovna maqolasidan olindi.

<sup>2</sup> file:///C:/Users/ASUS/Downloads/oila-jamiyat-farovonligining-ma-naviy-huquqiy-mezoni%20(1).pdf.

<sup>3</sup> [file:///C:/Users/ASUS/Downloads/oila-jamiyat-farovonligining-ma-naviy-huquqiy-mezoni%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/ASUS/Downloads/oila-jamiyat-farovonligining-ma-naviy-huquqiy-mezoni%20(1).pdf).

“Hayotiy-me’yoriy”, “ideal-ramziy” ma’noda erkak va ayollarda mavjud bo’lgan gender stereotiplari aniqlandi, erkaklik va ayollik xulq-atvor modellari jinslar tabiatiga xos jihatlari bilan taqqoslanildi. Jumladan, “shaxsiy” sifatlarni tavsiflovchi va xususiyatlarni aniqlovchi bipolyar tasdiqlar bilan tuzilgan, kommunikativ ta’sirni idrok etish jarayonida “Ayol obrazi”ni shakllantirish nazarda tutilgan, chunki oilada ayol psixoterapevt-lik vazifasini o’taydi va gender tan olinishida feminlik xususiyatlarini shakllanganligi ham muhim omil sanaladi.

Shuningdek, olib borilgan tadqiqot ishlarimizda tekshiriluvchilar shaxsiy semantik farqlash va psixosemantik eksperiment usulidan foydalanildi.

Empirik o’rganish natijalari tadqiqot natijalarini tahlil qilishda bir qator omillar aniqlab olindi:

- umumiy jozibadorlik omili;
- shaxsning mustaqilligi omili;
- hissiylik-emotsionallik omili;
- ijtimoiy maqomi;
- bog’liqlik-tobelik-qaramlik omili;
- hamdardlik ko’rsatish-empatiya omili;
- feminlik omili;
- erkaklik omili;
- androgenlik omili.

**Xulosa:** “Qachonki jamiyatimizdagи oilalar, ayollar, farzandlar, qizlar chinakam haq huquqlarini to’la to’kis xis qilsa jamiyat tomonidan hisobga olinsa teng huquqlilik asosida yashasagina turmush tarzi farovon bo’ladi. Sog’lom muhitda tarbiya topgan bola har tomonlama jismoniy, psixologik va ta’limiy jihatdan ustun bo’ladi. Biz jamiyatda oilada shaxslar ortasidagi munosabatlarda Gender tenglikni targ’ib qilish orqali kelajagimizning mustahkam imoratiga bir g’isht qo’shgan bo’lamiz. Biz bugungi kundagi islohotlarga befarq bo’lmasligimiz,jamiyat va davlat hayotidagi o’zgarishlarga o’zimizning muosib hissamizni qo’shishimiz kerak. Muhtasar aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmati,uning huquq va erkinliklari himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo’lmoqda.Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish,davlat va jamiyat munosabarlarida ayollarning o’rni va rolini yanada oshirish,ularning siyosiy,huquqiy,ijtimoiy sohalarda manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O’zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi”<sup>4</sup>.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. <https://oz.sputniknews.uz/20180209/Shavkat-Mirziyoyev-yaxshi-oila-uchun-kurashishkerak-7471800.html>
2. <https://www.sammuslim.uz/oz/articles/baxtiyor-oila-mustahkam-jamiyat-asosi>
3. Abdurauf Fitratning “Oila” asari

4 <https://cyberleninka.ru/article/n/yangilanayotgan-o-zbekistonda-gender-tenglikka-erishishstrategiyasi-hamda-uning-huquqiy-asoslari>

4. Abu Ali ibn Sinoning “Tadbil ul- manzil” risolasi
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/yangilanayotgan-o-zbekistonda-gender-tenglikka-erishishstrategiyasi-hamda-uning-huquqiy-asoslari>
6. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari>
7. Сарибаева У.С. Узбек оиласарида гендер тенглик ва миллий кадриятларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. - Т.: "Педагогика" илмий-назарий ва методик журнали 2020 йил 5- сон, 3-6 б.
8. Saribayeva U.S. Characteristics of gender equality between husband and wife in uzbek families // Vidyabharati international interdisciplinary research journal. 2021. Web of science. 3940-3949 (Special Issue) ISSN 2319-4979. 615